**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**
**O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**

Rektor ______________ I.Tuxtasinov

2025-yil "___" ______

Ro'yhatga olindi: *BD60230100-O'SH2304*

2025-yil " 4 " iyun

# O'LKASHUNOSLIK
# FANINING O'QUV DASTURI

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200 000 | – | San'at va gumanitar fanlar |
| **Ta'lim sohasi:** | 230 000 | – | Tillar |
| **Ta'lim yo'nalishi:** | 60230100 | – | Filologiya va tillarni o'qitish (turk tili) |

**Toshkent-2025**

| Fan/modul kodi | O‘quv yili | Semestr | Kreditlar | |
|---|---|---|---|---|
| O‘SH 2304 | 2025-2026 | 3 | 4 | |
| **Fan/modul turi** | **Ta’lim tili** | | **Haftadagi dars soatlari** | |
| Majburiy | O‘zbek / Rus | | 2 | |
| 1. | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta’lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | O‘lkashunoslik | 48 | 72 | 120 |

2.

**I. Fanning mazmuni:**

**Fanni o‘qitishdan maqsad** - talabalarda O‘zbekiston Respublikasining tabiiy-geografik, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’naviy hayoti hamda tarixiy taraqqiyoti haqida tizimli bilim va tasavvurlarni shakllantirishdir. Shuningdek, bu fan orqali talabalar Vatanimizga bo‘lgan mehr-muhabbatni, fuqarolik mas’uliyatini, milliy qadriyatlarga hurmatni yanada chuqur anglaydi.

**Fanning vazifasi** - quyidagilardan iborat:

- O‘zbekistonning tabiiy-geografik xususiyatlarini o‘rgatish: respublikaning relyefi, iqlimi, tabiiy resurslari, ekologik muammolari va ularning ahamiyatini tushuntirish.
- O‘zbekistonning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini tahlil qilish: qadimgi sivilizatsiyalar, tarixiy davlatlar, mustaqillikka erishish va undan keyingi rivojlanish bosqichlarini yoritish.
- Siyosiy-huquqiy tizim va davlat boshqaruvi tuzilmasi haqida ma’lumot berish: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlar, siyosiy institutlar va ularning faoliyati bilan tanishtirish.
- Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish asoslari va zamonaviy yutuqlarni tahlil qilish: demografik holat, sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmat ko‘rsatish sohasi, investitsion muhit haqida ma’lumot berish.
- Ozbekiston madaniy merosi va xalq an’analari haqida tasavvur berish: milliy bayramlar, urf-odatlar, san’at, adabiyot va ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qilish.
- Mamlakatning tashqi siyosati va xalqaro aloqalarini tushuntirish: Ozbekistonning jahon hamjamiyatidagi o‘rni, qo‘shni davlatlar bilan aloqalari, xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki haqida bilim berish.
- Talabalarda vatanparvarlik ruhini shakllantirish, O‘zbekistonning taraqqiyoti va istiqboliga daxldorlik tuyg‘usini mustahkamlash.

| | |
|---|---|
| | **Xorij tajribasiga muvofiqligi**<br>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi 300 talik ro‘yxatga kiruvchi **Oxford School of Global and Area Studies** ta’lim dasturi tajribasini o‘rgangan holda tuzildi.<br>https://www.mes.ox.ac.uk<br>**II. Asosiy qism (amaliy mashg‘ulotlar)**<br>**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**<br>**3-semestr**<br>1. O‘lkashunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari (2soat)<br>2. O‘zbekistonning geografik joylashuvi va tabiiy chegaralari (2soat)<br>3. Respublikamizning tabiiy resurslari va ularning ahamiyati (2soat)<br>4. O‘zbekistonning iqlimi va ekologik muammolari (2soat)<br>5. O‘zbekiston aholisi: soni, milliy tarkibi va demografik holati (2soat)<br>6. Qadimgi O‘zbekiston hududidagi ilk sivilizatsiyalar (2soat)<br>7. O‘rta asrlarda O‘zbekiston hududida tashkil topgan davlatlar (2soat)<br>8. Mustamlaka davri va Turkistonning taqdiri (2soat)<br>9. Mustaqillikka erishish va tarixiy ahamiyati (2soat)<br>10. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va huquqiy asoslari (2soat)<br>11. Davlat boshqaruv tizimi: Prezident, Oliy Majlis, Vazirlar Mahkamasi (2soat)<br>12. Hududiy-hududiy bo‘linishlar va ma’muriy tuzilma (2soat)<br>13. O‘zbekistonning iqtisodiy salohiyati: sanoat va energetika (2soat)<br>14. Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi (2soat)<br>15. Transport va kommunikatsiya tizimlari (2soat)<br>16. Turizm sohasi va madaniy meros obyektlari (2soat)<br>17. Ta’lim va ilm-fan sohasida erishilgan yutuqlar (2soat)<br>18. O‘zbekiston san’ati, adabiyoti va musiqasi (2soat)<br>19. Urf-odatlar, milliy bayramlar va marosimlar (2soat)<br>20. O‘zbekistonning zamonaviy siyosiy hayoti (2soat)<br>21. Tashqi siyosat va xalqaro tashkilotlardagi ishtirok (2soat) |

| | |
|---|---|
| | 22. O‘zbekistonning qo‘shni davlatlar bilan munosabatlari (2soat)<br>23. Yangi O‘zbekiston – islohotlar va taraqqiyot strategiyalari (2soat)<br>24. O‘zbekiston yoshlar siyosati va kelajak avlod tarbiyasi (2soat)<br>**III. Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar:**<br>Amaliy mashg‘lotlar multimedia vositalari bilan jihozlangan auditoriyada faol va interfaol usullar yordamida o‘tilishi, mashg‘ulot jarayonida mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.<br><br>**IV. Mustaqil ta’lim shaklini tashkil etishga qo‘yilgan talablar va tavsiya etilgan mavzular:**<br>Talabalarni mustaqil ta’lim shaklini tashkil etishga qo‘yilgan talablar O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli “Oliy ta’lim muassasalari talabalari mustaqil ta’limini tashkil etish bo'yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i asosida ishlab chiqilgan.<br>Mustaqil ta’limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlami HEMIS axborot tizimida ilova qilish, shuningdek, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshiriladi.<br>- o‘tilgan mavzuni chuqur o’rganishlari uchun darslik, o‘quv materiallari bilan faol ishlash;<br>- amaliy mashg‘ulotlar va imtihonlarga oldindan tayyorgarlik ko'rish, vaqtdan unumli foydalanish;<br>- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta’lim topshiriqlarini belgilangan muddatlarda taqdim etishi;<br>- mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko‘chirmakashlik)ga yo‘l qo'ymasligi;<br>- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o‘ziga yuklatilganl vazifalami o‘z vaqtida bajarishi.<br><br>**Mustaqil ta’limni tashkil etishda fanning xususiyatini inobatga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:**<br>- mavzu yuzasidan tahliliy ma’lumot (esse) tayyorlash;<br>- badiiy-ijodiy ishni bajarish;<br>- aniq mavzu bo'yicha tahliliy taqdimot (prezentatsiya) tayyorlash; |

| | |
|---|---|
| | https://uzbekistan.travel |
| **7.** | O‘quv dasturi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Dastur universitet Kengashining 2025-yil 4 - iyun dagi yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va tasdiqqa tavsiya etilgan ( 10 - sonli bayonnoma). |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas’ullar:**<br>H.Mahkamova – O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti “Ikkinchi chet tili” kafedrasi PhD o‘qituvchi;<br>N.Abduraximov – O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti “Ikkinchi chet tili” kafedrasi o‘qituvchi;<br>Z.Komilova – O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti Ikkinchi chet tili” kafedrasi stajyor-o‘qituvchi. |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>G.Xalliyeva – O‘zDJTU, “Jahon adabiyoti” kafedrasi mudiri f.f.d.,professor.<br>A.Tilavov – TDO‘TAU, “Folklorshunoslik va dialektologiya” kafedrasi dotsenti, f.f.n. |

Ingiliz №3
fakultet dekani ____________ I.Xaydarov

Ikkinchi chet tillari
kafedrasi mudiri ____________ E.Moydinova

Unversitet axborot resurs
markazi direktori ____________ S.Kayumova

| | |
|---|---|
| | savollarga to'g'ri javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan muyyan amaliy bilimga ega bo'ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko'nikmasiga ega bo'ladi, biroq mavzuga oid masalalar yuzasidan yetarli qaror qabul qila olmaydi.<br>**3 (qoniqarli) baho** – talaba amaliy mashg'ulotlari topshirig'ini mustaqil yondashgan holatda to'g'ri bajarish jarayonida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yadi, amaliy muammo bo'yicha mustaqil mushohada yuritishda ma'lum ilmiy-nazariy xatolarga yo'l qo'yadi, tayanch tushncha va terminlarning mohiyatini to'liq izohlay olmaydi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga qisman javob beradi, berilgan vazifa yuzasidan yetarli bilimga ega bo'lmaydi. Talaba fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash, mavzuga oid masalalar yuzasidan qaror qabul qila olish ko'nikmasi to'liq shakllanmagan bo'ladi.<br>**2 (qoniqarsiz) baho** – talaba modul bo'yicha yetarli bilimga ega emas, juda qo'pol xatolarga yo'l qo'yadi, savollarga qiyinchilik bilan javob beradi, berilgan topshiriqlarni bajara olmaydi. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Gaybullayeva D. (2021) Regional studies (Uzbekistan") : manual / D.F. – Toshkent :Nodirabegim.<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Chris Cooper. (2006) Tourism: Principles and Practice. – Financial Times Management. – 810 p.<br>2. Fevzi Okumus. (2010) Strategic Management for Hospitality and Tourism. – Taylor Francis. – 349 p.<br>3. Jurakhonovich, K. S. (Apr - jun 2020). Pilgrimage Tourism in Uzbekistan; Problems and Solutions. Social Sciences and Humanities, Uzbekistan.<br>4. O'zbekiston obidalaridagi durdona bitiklar. Mualliflar jamoasi. T.: O'zbekiston,2011. - 559 b.<br>5. Pugachenkova G. Vыidayumiesya pamyatniki arxitekturы Uzbekistana. -Toshkent: GIXL, 1958. - 246 b.<br>6. Rustamovich, D. B. (2020). Analysis of the Development of Tourism in Uzbekistan. Journal of International Business Research and Marketing (p. Uzbekistan). Tashkent: September, 2020.<br>7. Stephen J. Page. Tourism Management: An Introduction. - Elsevier Science & Technology Books, 2011. – 382 p.<br><br>**Axborot manbalari**<br>8. www.uzbektourism.uz<br>9. www.advantour.com<br>https://uzbekistan.travel |

| | |
|---|---|
| | - berilgan muammoni keng tahlil qilish, unga ta'rif va xulosalarni berish;<br>- amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish, test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash orqali loyihalar ishlash ko'nikmasini shakllantirish;<br>- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;<br><br>**3 – semestr**<br>1. O'lkashunoslik fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqasi (2 soat)<br>2. O'zbekistonning global xaritadagi strategik o'rni (2 soat)<br>3. Respublikaning tabiiy boyliklari: turlari va ahamiyati (2 soat)<br>4. Iqlim o'zgarishlari va O'zbekistondagi ekologik inqirozlar (2 soat)<br>5. O'zbekiston aholisi: demografik o'sish va urbanizatsiya (2 soat)<br>6. Amudaryo va Sirdaryo havzalarining geografik o'rganilishi (2 soat)<br>7. Zarafshon vodiysi – tabiiy va madaniy hudud sifatida (2 soat)<br>8. Qadimgi Buxoro: tarixiy-geografik tahlil (2 soat)<br>9. Samarqand shahri – tarixiy meros va bugungi hayot (2 soat)<br>10. Xorazm vohasi: qadimiy tsivilizatsiyalar markazi sifatida (2 soat)<br>11. Mustamlaka davrida O'zbekiston: siyosiy va iqtisodiy tahlil (2 soat)<br>12. Mustaqillikning dastlabki yillari: ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar (2 soat)<br>13. O'zbekiston Konstitutsiyasining tuzilishi va mazmuni (2 soat)<br>14. Fuqarolik jamiyati va demokratik institutlar (2 soat)<br>15. Hududiy rivojlanish siyosati va mahalliy boshqaruv (2 soat)<br>16. Toshkent shahrining ijtimoiy va iqtisodiy roli (2 soat)<br>17. Farg'ona vodiysining etno-geografik o'ziga xosliklari (2 soat)<br>18. O'zbekiston sanoat salohiyati: yo'nalishlari va rivojlanish omillari (2 soat)<br>19. Qishloq xo'jaligi: innovatsion yondashuvlar va resurslardan foydalanish(2 soat)<br>20. Ekoturizmning O'zbekistondagi rivojlanish istiqbollari (2 soat) |

| | |
|---|---|
| | 21. O‘zbekistonning transport infratuzilmasi: temir yo‘llar va avtomobil yo‘llari (2 soat)<br>22. Axborot texnologiyalari va raqamli infratuzilma (2 soat)<br>23. O‘zbekiston ta’lim tizimining rivojlanish bosqichlari (2 soat)<br>24. Adabiyotda O‘zbekiston obrazining ifodasi (2 soat)<br>25. O‘zbekiston xalqlarining madaniy xilma-xilligi (2 soat)<br>26. Milliy urf-odatlar va ularning zamonaviy talqini (2 soat)<br>27. O‘zbekistonning mustaqil tashqi siyosati: asosiy tamoyillar (2 soat)<br>28. Markaziy Osiyoda O‘zbekistonning roli va pozitsiyasi (2 soat)<br>29. O‘zbekiston – Turk davlatlari tashkilotidagi ishtiroki (2 soat)<br>30. O‘zbekistonning xalqaro iqtisodiy integratsiyalardagi ishtiroki (2 soat)<br>31. O‘zbekistonning BMT bilan hamkorligi (2 soat)<br>32. “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi va taraqqiyot strategiyasi (2 soat)<br>33. O‘zbekiston yoshlar siyosatining ustuvor yo‘nalishlari (2 soat)<br>34. Hududlar kesimida madaniy turizm salohiyati (2 soat)<br>35. O‘zbekistonning suv siyosati va mintaqaviy muammolar (2 soat)<br>36. Iqlim o‘zgarishi va yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘llari (2 soat)<br><br>Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar o‘quv dasturida tavsiya etilgan qo‘shimcha adabiyotlarni o‘qish, o‘zlashtirish, ularni tahlil qilish, berilgan mavzular bo‘yicha portfolio tayyorlash va ularni taqdimot qilish tavsiya etiladi. |
| 3. | **V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)**<br>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:<br>• Turkiya Respublikasi haqida to‘plangan ma’lumotlarni tahlil qilish, solishtirish va saralash ko‘nikmalariga ega bo‘ladi.;<br>• Turli manbalardan, jumladan, ilmiy, ommaviy va rasmiy hujjatlardan foydalanib, ishonchli axborotni ajratib olishni o‘rganadi.;<br>• turk xalqi madaniyati, qadriyatlari, an’analari va ijtimoiy hayoti haqida bilimga ega bo‘ladi hamda boshqa madaniyat egalari bilan to‘g‘ri muloqot qilishni o‘rganadi;<br>• Turkiya va O‘zbekiston xalqlari o‘rtasidagi umumiylik va farqlarni anglab, madaniy bag‘rikenglik asosida fikr yuritadi;<br>• Turkiya davlati bo‘yicha olingan bilimlar asosida tarixiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishga qodir bo‘ladi;<br>• Turkiyaning siyosiy tizimi, iqtisodiy rivojlanishi, ta’lim va madaniy hayoti to‘g‘risida mustahkam bilimga ega bo‘ladi. |
| 4. | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• amaliy mashg‘ulotlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruh, mikroguruh bo‘lib ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrdagi 824-sonli qarori bilan tasdiqlangan “OTMlarda o’quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi tog’risida Nizom”ga ko’ra fanga ajratilgan kredit beriladi.<br>Talabalarning bilimini baholash O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-son buyrug’i bilan tasdiqlangan “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to’g’risidagi Nizom” talablari asosida belgilanadi.<br>**Talabalarning bilimini baholash mezonlari:**<br>**5 (a’lo) baho** – talaba amaliy mashg‘ulotlari topshirig‘ini mustaqil yondashgan holatda to‘g‘ri bajaradi, amaliy muammo bo‘yicha mustaqil mushohada yuritadi, masalaga oid daliliy misollarni tanlay oladi va ularni to‘g‘ri tahlil etish asosida ma’lum ilmiy xulosalar chiqara biladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini to‘g‘ri izohlay oladi, dars jarayonida berilgan amaliy savollarga to’g’ri javob bera oladi, berilgan vazifa yuzasidan keng amaliy bilimga ega bo‘ladi, fikrini izchil, erkin va ravon ifodalash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi, mavzuga oid masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qila oladi.<br>**4 (yaxshi) baho** – talaba amaliy mashg‘ulotlari topshirig‘ini mustaqil yondashgan holatda to‘g‘ri bajaradi, ammo ishda ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yadi, amaliy muammo bo‘yicha mustaqil mushohada yurita oladi, masalaga oid daliliy misollarni tahlil etish asosida ma’lum ilmiy-nazariy xulosalar chiqara oladi, tayanch tushuncha va terminlarning mohiyatini izohlashda ba’zi ikkilanishlarga, kamchiliklarga yo‘l qo‘yadi, dars jarayonida berilgan amaliy |